

.....

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Muslimaxon Zohidova,

Qo‘qon DU rus tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta‘lim jarayonida “Leksemaning nutq ko‘rinishlariga xoslanishi” mavzusini o‘qitish metodikasi yoritilgan. Unda leksemalarning nutq jarayonida qo‘llanish xususiyatlari, ularning uslubiy qatlamlarga ajralishi hamda badiiy asar tilidagi namoyon bo‘lish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda musobaqa texnologiyasi, keys topshiriqlari, FSMU texnologiyasi kabi zamonaviy pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va lingvistik tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot shakllari tavsiya etilgan. Leksemalarning uslubiy xoslanishini o‘rganishda adabiy matnlardan foydalanish, so‘zlarning fonetik, grammatik va semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali talabalarning nutq madaniyati va til sezgirligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: leksema, leksik qatlam, nutq ko‘rinishlari, uslubiy xoslanish, badiiy matn, amaliy mashg‘ulot, musobaqa texnologiyasi, keys usuli.

Leksema serqirra birlik sifatida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘la oladi. Leksemalarning nutq jarayonida qo‘llanishining o‘ziga xos jihatlari, ularning nutq ko‘rinishlariga xoslanishini talabalarga o‘rgatishni adabiyot bilan bog‘liqlikda olib borish yaxshi samara beradi. Musobaqa texnologiyasi amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni faollashtiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi. Xususan, **“Leksemaning nutq ko‘rinishlariga xoslanishi”** mavzusini o‘tishga mo‘ljallangan ikki soatlik amaliy mashg‘ulot ishlanmasi quyidagicha:

Amaliy mashg‘ulot rejasi:

1. Umumnutq qatlam leksemalari.
2. Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksik qatlamlar.
3. Nutq ko‘rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo‘llanishi.
4. So‘zlarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarida nutq

ko‘rinishlariga xoslanish.

I. Ma’naviyat daqiqasi: (6) Navoiy, Erkin Vohidov kabi siymolarni qaysi jihat birlashtirib turadi? Ushbu mantiqiy fikrlashga undovchi savol bilan talabalarga murojaat qilinadi. Talabalarning mulohazalari tinglanadi. Quyidagicha umumlashtiriladi: Navoiy, Erkin Vohidov portretlariga qarab turib, bu insonlarning ijodiga, olib odag faoliyatiga nazar tashlagan holda ularni jasorat, xalqparvarlik, kamtarlik birlashtirib turadi deb ayta olamiz. Mubolag‘asiz aytganda, bu siymolar nomi mangu barhayotdir. Navoiy: “Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” ; Erkin Vohidov : “Bu qasidam senga xalqim, oq sut-u tuz hurmati...”, deya xitob qiladi va butun umr o‘z aytgan fikrlariga to‘la amal qiladi. Agar Navoiyda jasorat bo‘lmasa, Shoh Husayn Boyqaro g‘azabidan qo‘rqmasdan uni tanqid qilib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatarmidi? Erkin Vohidov rus istibdodi kezlarida “Qayga bormay, boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib” deb hayqirarmidi? Shuning uchun ular hurmat-e’tiborga munosib, shuning uchun ular insonlar qalbida boqiy yashaydi!

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash (“O‘zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi”).

(4) K e y s topshirig‘i. (10)

Muammo	Ishoralar	Yechim
Bo‘lishsizlik ma’nosini emotsional- ekspressiv shakllarda qanday bayon qilish mumkin?	Takror, yuklama, so‘roq olmoshi	boraman-a boraman; borib bo‘libman; borish qayoqda

2. Berilgan uslubiy betaraf so‘zlardan emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi 4 usuldan birortasi yordamida uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar hosil qiling. (10)

1- guruh: Ona, aylanmoq, kenja, boy, semiz, katta, shirin
(onajon, onaxon, sanqimoq, kenjatoy, tamtam, baqaloq/ buqa, kaatta, asal)

2- guruh:Novcha, bo'shashgan, aqlsiz, qaysar, oriq, kelin, maza (naynov, latta / lapashang, kalla, tirriq / qiltiriq, kelinchak, mazza)

III. Yangi mavzu bayoni. (10)

1. Ta'riflarga mos uslublar nomini topish. Xato fikrlarni ko'rsatish.

1- ta'rif

Ushbu uslub axborotning haqqoniyligini isbotlashga qaratilgan bo'ladi. Bu uslubdagi nutqda mantiqiy izchillikni ta'minlash uchun ma'lum bir abzasdagi fikr-dalillar vositasida keyingi gaplar bilan to'ldirib boriladi. Ko'pincha, dialogik shaklda bo'ladi. Bu gaplar ifoda maqsadiga ko'ra, asosan, darak, ba'zan so'roq gap tarzida bo'ladi.

2- ta'rif

...Bu uslubdagi nutqda nutq aniqligiga katta e'tibor beriladi. Jumlar siqiq, ko'pincha, bir qolipda bo'ladi. Biror hodisaning mohiyatini to'laroq ochish uchun uyushiq bo'lakli gaplardan foydalaniladi. To'liqsiz gaplar ko'p ishlatiladi. Ushbu uslubdagi gaplarning kesimi aniqlik va buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

3- ta'rif

...Bunday nutq uslubida oda gaplar bilan bir qatorda, murakkab qo'shma gaplar ham ko'p ishlatiladi. So'z birikmasi va gap sinonimiyasidan keng foydalaniladi. To'liqsiz gaplar deyarli uchramaydi. Inversiya, ritorik so'roq gaplardan foydalanilmaydi. Ijtimoiy hayot voqea-hodisalari tushunarli tarzda ifodalanadi" [2;35].

4- ta'rif

...Unda so'z tartibi erkin. Bu uslubdagi nutq ta'sirchan va obrazli bo'ladi. Asosan, dalillarga tayanadi. Barcha uslublarga xos sintaktik belgilarga ega. Nutqning tasviriy vositalariga boyligi bilan ajralib turadi" [2;33].

5- ta'rif

Ushbu uslubdagi matn so'zlovchining hech qanday tayyorgarligisiz vujudga keltiriladi. Ko'proq to'liqsiz gaplar, ritorik so'roq gap, uyushiq bo'lakli gaplardan foydalaniladi. Bunday nutq gazeta va jurnallarda keng ishlatiladi.

2. FSMU texnologiyasini qo'llash. (10) Bunda guruhlar alohida jadvallar berilib, uni to'ldirish topshiriladi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.

3. Quyidagi jadvalni to'ldiring. (10)

	So'zlarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarida nutq ko'rinishlariga xoslanish	Misollar
1.	Tovush tushishi	
2.	Tovushlarning o'rin almashishi	
3.	Bir tovush o'rnida boshqa tovushning qo'llanishi	
4.	Turli o'rinlarda tovush ortishi	
5.	Unlilarning cho'zilishi	
6.	Bir xil undoshlarning qavatlanishi	
7.	So'zlarni qisqartirib talaffuz qilish	

4. **Mashq bajarish.** Berilgan sinonimiya qatorlaridagi so'zlarni quyidagi ustunlarga yozing:

1. Uslubiy betaraf so'zlar:
2. So'zlashuv uslubiga tegishli so'zlar:
3. Badiiy uslubga xos so'zlar:

Zavq, maroq, shavq;

Janjal, to'polon, g'alva, mojaro, g'avg'o, mashmasha;

Maosh, oylik, moyana;

Kabi, yanglig', singari, o'xshash,

misoli; Yemoq, tanovul qilmoq, tushirmoq;

Abadiy, toabad, umrbod;

Ayriliq, judolik, hajr.

5. Matn yozing. Matnning nutqning qaysi ko'rinishiga xos ekanligini aniqlang, bunday "xos"likning ifodalanishida muhim rol o'ynagan leksik, semantik, fonetik va grammatik birliklarning uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring. Uslublararo chegaralangan 4 tadan so'zni doskaga yozing.

IV. **Vazifa.** Frazeologiya mavzusini o'qib, badiiy asarlardan monosemik va polisemik iboralarga misollar topish. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining

izohli frazeologik lug‘ati” [5;90] ni mustaqil o‘qish.

V. Baholash.

VI. Mavzuni umumlashtirib, darsni yakunlash.

Har bir mavzuni o‘tishda o‘qituvchi izlanishi, mashg‘ulotlarni yangi-yangi ish turlaridan foydalanib tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Universitet, 2001.
2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Noshir, 2009.
3. Almatov T, Yadgarov Q, Almatova Sh. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi nazariyasi jadvallarda va saytlarda. –Toshkent: Hilol media, 2018.
4. Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
6. Ботирова, Ш. И. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери янги устувор йўналиш сифатида. Academic research in educational sciences, (3), 487-494.
7. Dildora, I. (2023). TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF INTELLIGENCE AND THE MANIFESTATION OF TALENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS.
8. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(20), 222-224.
9. Abdullayeva, M. D. (2023). O‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati. Экономика и социум, (12 (115)-1), 37-41.
10. Abdullayeva, M. (2025). PISA TOPSHIRIQLARI TAHLILI VA O ‘QITISH JARAYONIGA TA’SIRI. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(10), 373-375.
11. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(1), 35-48.